

O'SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
AKADEMIK S.Y.YUNUSOV NOMIDAGI O'SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI

Akademik S.Y.Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi instituti

doktorantura, tayanch doktorantura va stajyor-tadqiqotchilik
institutiga 2027-yil uchun quyidagi ilmiy yo'nalishlar bo'yicha

QABUL E'LO'N QILINADI:



02.00.03 – Organik kimyo;



02.00.10 – Bioorganik kimyo;



06.01.09 – O'simliklarni himoya qilish



14.00.17 – Farmakologiya va
klinik farmakologiya

QABUL KVOTASI

Yo'nalish nomi	Doktorantura		Tayanch doktorantura	Maqsadli doktorantura		Stajyor-tadqiqotchi
	DSc	PhD		DSc	PhD	
Jami	2	13	0	0	0	8
Organik kimyo	1	5	0	0	0	2
Bioorganik kimyo	1	6	0	0	0	4
O'simliklarni himoya qilish	0	1	0	0	0	1
Farmakologiya va klinik farmakologiya	0	1	0	0	0	1



Hujjatlar 2026-yilning
15-sentyabrdan 15-oktyabrgacha
Yagona elektron tizimi orqali
qabul qilinadi.



Doktorantura kirish
imtihonlari 2026-yilning
1-25 noyabr oralig'ida
bo'lib o'tadi.



Tayanch doktoranturaga kiruvchilar
mutaxassislik fanidan imtixon
topshirdilar. Stajyor-tadqiqotchi va
doktoranturaga kiruvchi nomzodlar
suhbatdan o'tkaziladilar.



Ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor
yo'nalishlariga oid ixtisosliklarga
talabgorlarni qabul qilish kirish
imtihoni o'rniga ilmiy tadqiqot ishi
taqdimoti asosida amalga oshiriladi.



TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRUVCHI NOMZODLAR QUYIDAGI TALABLARGA JAVOB BERISHI LOZIM:

- ✓ oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi yoki magistr darajasi joriy etilguncha olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga ega bo'lish;
- ✓ muayyan ilmiy natijalarga, shu jumladan dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan, ilmiy jurnallar va nashrlarda chop etilgan kamida bitta ilmiy maqola va ilmiy-amaliy konferensiyalarda tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ikkita ma'ruza-tezisga ega bo'lish;
- ✓ xorijiy tildan barcha yo'nalishlar bo'yicha kamida B1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lish (turk va arab tillari kabi sertifikatlar qabul qilinmaydi);
- ✓ zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan Internetdan foydalana olish.



DOKTORANTURAGA KIRUVCHI NOMZODLAR QUYIDAGI TALABLARGA JAVOB BERISHI LOZIM:

- ✓ fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoxud ularga tenglashtirilgan xorijiy davlatlarda olingan ilmiy darajalar;
- ✓ fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoxud ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar olingandan so'ng muhim ilmiy yutuqlarga erishish, shu jumladan, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo'lish;
- ✓ xorijiy til bo'yicha kamida B1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lish (turk va arab tillari kabi sertifikatlar qabul qilinmaydi).



Boshqa shaharlardan kelgan
mutaxassislar yotoqxona bilan
ta'minlanadilar.



Qo'shimcha ma'lumot
<https://uzicps.uz>
saytidan olish mumkin.



Ma'lumot uchun telefonlar:
(+998) 55 588-59-13,
(+998) 55 588-59-09